

BADIIY PORTRET VA UNING TARJIMADA AKS ETISHI**Salovatova Maxfiratxon Shaxobiddin qizi***ToshDO‘TAU TNA 4-kurs talabasi**msalovatova6@gmail.com +99877 391 77 22**Ilmiy rahbar: PhD Mahmadiyov Asadov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotda portretning o‘rni va ahamiyati, shuningdek, uning tarjimada adekvat berilish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazi va uning ingliz tilidagi tarjimasi tanlangan. Asliyat va tarjima matnlari qiyosiy tahlil qilinib, personaj portretini ifodalovchi leksik birliklarning semantik va stilistik mosligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, obraz, portret, statik, dinamik, badiiy tarjima, adekvat, milliy kolorit.

Annotation: This article analyzes the role and significance of portrait in fiction, as well as the issues related to its adequate rendering in translation. As the object of the study, the character of Zebi from Cho‘lpon’s novel “Night and Day” and its English translation have been selected. The source text and its translation are examined through a comparative analysis, focusing on the semantic and stylistic equivalence of lexical units used to convey the character’s portrait.

Keywords: literary fiction, image, portrait, static, dynamic, literary translation, adequacy, national color

Adabiyot inson tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatining eng nozik qatlamlarini aks ettiruvchi ma’naviy vositadir. U xalqning tarixi, dunyoqarashi va orzu-istaklarini o‘zida mujassam etganligi uchun ham jamiyat taraqqiyotida hamisha muhim o‘rin tutadi. Hayotdagi barcha narsa va hodisalarni, shuningdek insoniyatni san’atkor tomonidan qayta yaratilgan badiiy aksi obraz deyiladi. Yozuvchi yoki shoir hayotni o‘z tasavvuri va dunyo qarashlari asosida qayta talqin qilib ko‘rsatadi. Taniqli adabiyotshunos olim D.Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” asarida obrazga shunday mazmunda ta’rif beradi:

Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin shaklda ifodalangan aksidir. Albatta, bu aksda borliqning ko‘plab tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o‘zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir [Quronov, 2019:64].

Badiiy asarlarda inson obrazini to‘liq va jonli ko‘rinishda tasvirlash uchun yozuvchi bir qator badiiy vositalardan foydalanadi. Ular qatoriga muallif xarakterikasi,

portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi va boshqa tushunchalar kiradi. Personajning soʻz orqali ifodalangan tashqi koʻrinishi portret deb ataladi va badiiy adabiyotda portret inson obrazini tasvirlashda muhim vositalardan biri hisoblanadi. D.Quronov “Adabiyotshunoslik lugʻati” kitobida portretga quyidagicha izoh beradi va ikki turini sanab oʻtadi:

PORTRET (fr. *portraire* – tasvirlamoq) – personajning soʻz vositasida tasvirlangan tashqi koʻrinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-koʻz ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), oʻquvchi tasavvurida jonlanadigan toʻlaqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. P. epik asarning kompozitsion unsuri boʻlmish tavsifning bir koʻrinishidir. Shartli ravishda **statik** va **dinamik** P. turlari farqlanadi. **Statik** deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi toʻxtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday P.lar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada (mas., “Kecha”dagi Razzoq soʻfi P.i) beriladi. **Dinamik** P. deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, yaʼni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi koʻrinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday P. detallari (yuz-koʻz ifodalari, tana holati va harakati, qiliqlari) koʻproq *remarkalardan* joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. [Куронов, 2013:226].

Badiiy asarda portret personajning tashqi koʻrinishi orqali uning xarakteri, ruhiy holati va ijtimoiy holatini ochib beruvchi muhim badiiy vositalardan biridir. Yozuvchi tomonidan soʻz orqali yaratilgan tashqi tasvir personaj obrazining jonliligi va ishonarliligini taʼminlaydi. Shu sababli portretning tarjimada aniq va adekvat berilishi badiiy asarning umumiy mazmunini toʻgʻri yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar portret elementlari tarjimada soddalashtirilsa, qisqartirilsa yoki semantik jihatdan notoʻgʻri talqin qilinsa, personaj obrazi toʻliq ochilmaydi va asarning badiiy qiymatiga taʼsir qiladi. Demak, tarjimon portretni tarjima qilish jarayonida nafaqat tashqi belgilarni, balki ularning obraz yaratishdagi funksional va maʼnaviy jihatini ham hisobga olishi lozim. Bu esa badiiy tarjimaning adekvatligi va badiiy qiymatini taʼminlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanida ham har bir qahramonning portreti ularning ichki olamini, xarakterini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Zebi portreti orqali qahramonning xarakteri, ichki holati, tashqi koʻrinishi mahorat bilan ifodalangan.

Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, koʻngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol toʻshalgan aravada boʻlsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi. Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan toʻxtaganlar, endi tashqari eshikning “gʻiyt” etishi — bir ikki ayolning astagina bosib, paranjisini sudrab kirib

kelishiga dalolat qilmas, hali endigina o'n beshga qadam qo'ygan bu yosh qizning go'dak ko'nglini uncha cho'chitmas edi [Cho'lpon, 2000:3].

Zebi's soul had felt compressed all winter, as if rusting, but it began to expand with spring's warmth. She had just begun thirsting to ride out into the fields and meadows in a horse-drawn cart, even one covered in straw. The chain of matchmakers that poured into her house uninterruptedly all winter had stopped momentarily for the last one to two weeks, and now the creak of a door, the slow steps of a woman, and the rustle of a paranji no longer terrified her young heart [Kristofer Fort, 2019:46].

Quyidagi parchaning ingliz tilidagi tarjimasi mazmunan adekvat bo'lib, tarjimon asliyatdagi asosiy g'oya va voqealar ketma-ketligini to'g'ri aks ettira olgan. Tarjimada Zebi obrazining qish davomida siqilgan ruhiy holati va bahor bilan bog'liq ichki yengillik holati aniq va tushunarli tarzda ifodalangan. Xususan, *"soul had felt compressed all winter"*, *"began to expand with spring's warmth"* kabi birikmalar orqali personajning psixologik holati muvaffaqiyatli yetkazilgan. Tarjimada milliy realiyalar, jumladan *paranji* tushunchasining saqlab qolinishi asarning milliy koloritini yetkazishga xizmat qilgan. Umuman olganda, tarjimada personaj portreti va uning ruhiy kechinmalari yetarlicha ochib berilgan, o'qilishga qulay va tushunarli.

Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. Bu ovoz, peshona ustida pilpillagan eng yorug' yulduz singari, boshqa ovozlardan ochiq ajralib turardi [Cho'lpon, 2000:22].

After a couple of lines Zebi's beautiful, powerful voice joined in, ringing out like tea striking an immaculately clean cup. That voice, like the brightest star shimmering in the night sky, quickly separated itself from the others [Kristofer Fort, 2019:62].

Mazkur parchaning inglizcha tarjimasi asliyatdagi umumiy mazmunni yetkazgan bo'lsa-da, semantik jihatdan bazi bir kamchiliklarga ega. Xususan, *jonon piyoladek jaranglab chiqadigan* iborasining *tea striking an immaculately clean cup* tarzida berilishi ingliz tilida tabiiy bo'lmagan metaforani yuzaga keltirgan va bu ibora o'zbek tilida yetkazilmoqchi bo'lgan ma'nodan farq qiladi. Ingliz tilida choyni piyolaga quyilganda paydo bo'ladigan tovushni, o'zbek tilida esa jonon piyoladan chiqadigan tovushni ifodalayapti. Tarjimada *quickly* ravishi qo'shilgan va asliyatda mavjud bo'lmagan tezlik ma'nosi kiritilgan, bu esa semantik jihatdan biroz o'zgarishga sabab bo'lgan.

Zebi chimildiqda ikkita xotinni suhbatini eshitib qoladi, ulardan biri: — Qizingiz yetilib qoldi, mingboshi dodhoga bermaysizmi? Deb so'raganda, ikkinchi ayol: — Buvatavakkal adirida odam soniday yo'g'on ilonlar bo'lar emish. Shularga bersam bo'lmaydimi!.. deya javob beradi va bu suhbatni eshitgan Zebini holatini yozuvchi mahorat bilan quyidagicha tasvirlab beradi: *Zebi ko'zlarini mo'tiratib, qo'li*

ko'ksida, bedarmon yotardi. Og'zini ochib bir so'z demas, savollarga javob bermas, yoniga kirgan Enaxonni ham tanimasdi. Rangi paxtadek oqargan, qovoqlari burishta uchib tushardi [Cho'lpon, 2000:105].

Zebi, her woeful eyes trained outside and her hand on her breast, lay down helplessly. She said nothing, answered none of the questions from her mother, and didn't even recognize Enaxon, who had come to her side. Her face went white like cotton and her eyelids twitched [Kristofer Fort, 2019:132].

Berilgan parchani ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida asliyatdagi voqealar rivoji va Zebi obrazining umumiy holati asosan saqlangan. Qahramonning befarqligi, savollarga javob bermasligi va atrofdagilarni tanimasligi tarjimada aniq va tushunarli ifodalangan. Shuningdek, “*rangi paxtadek oqargan*” tasvirining “*her face went white like cotton*” tarzida berilishi mazmuniy jihatdan aynan mos keladi. Biroq *bedarmon* so'zining *helplessly* shaklida tarjima qilinishi semantik jihatdan to'liq mos kelmagan, chunki o'zbek tilidagi *bedarmon* sifati, asosan, jismoniy holdan toyish va quvvatning yo'qolishini anglatadi, shunchaki ojizlik ma'nosini emas. *Exhausted* yoki *utterly exhausted* kabi leksik ekvivalentlar asl ma'noni aniqroq ifodalaydi va mazkur kontekstda foydalanish afzalroq hisoblanadi.

Portret yordamida o'quvchi qahramonning aniq va jonli qiyofasini ko'z oldiga keltira oladi, shuning uchun ham tarjimada portret tasvirini to'liq, aniq va muallif uslubiga mos holda berish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon qahramonning tashqi ko'rinishi, yuz ifodasi, kiyimi va harakatlarini ifodalovchi til birliklarini asliyatga sodiq qolgan holda, shu bilan birga tarjima tilining badiiy imkoniyatlardan foydalangan holda yetkazish lozim. Aks holda, qahramon obrazi xiralashib, asarning badiiy ta'sir kuchi susayishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Каримов, Н. (2003). Чўлпон: Маърифий роман. Тошкент: Шарк.
2. Quronov, D. (2019). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Noshir.
3. Куронов, Д. (2004). Чўлпон насри поэтикаси / Масъул мух. О.Шарафиддинов, У. Норматов. Тошкент: Шарк.
4. Куронов, Д., Мамажонов, З., Шералиева, М. (2013). Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr.
5. Mirzayev, S. (2005). XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Umurov, H. (2004). Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi.
7. Шарафиддинов, О. (1991). Чўлпон. Тошкент: Фан ва турмуш
8. Cho'lpon. (2000). Kecha va kunduz. Toshkent: Sharq.
9. Christophor, F. (2019). Day and Night. US: Academic Studies Press.
10. Асадов, М. (2020). Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси. “Сўз санъати” халқаро журнали.

- 11.Asadov, M. (2022). A comparative study of the image of sisyphus in western and uzbek literature.
- 12.Asadov, M. (2023). Sizif haqida mif: Kamyu va Xurshid Do'stmuhammad. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
- 13.Turaevich, A. M. (2022, January). LONELINESS AND ABSURDITY IS THE BASIS OF ALBER KAMYU'S CONCEPT OF ART. In *European journal of science archives conferences series/Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive* (Vol. 2013, p. 30).

INTERNET SAYTLARI:

1. https://oz.sputniknews.uz/20200520/Mirziev-yangi-barpo-etilgan-Adiblar-khiboniga-tashrif-buyurdi-14174783.html?utm_source=chatgpt.com
2. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/adabiy-portretning-janr-xususiyatlari>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/kecha-va-kunduz-romani-qahramonlarining-tariflarini-qo-llashda-ijodkor-mahorati-va-qo-llangan-antroponimik-birliklar-ahamiyati>